

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil 30- aprel dagi
48 - sonli buyrug'iga
Ilova

**Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati
dalolatnomalari va statistik hisob talonlari ma'lumotlarini kodlashtirish
bo'yicha qo'llanma**

“Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati dalolatnomalari va statistik hisob talonlari ma'lumotlarini kodlashtirish bo'yicha qo'llanma” (keyingi o'rinlarda – Qo'llanma) aholi soni, tug'ilganlar, o'lganlar, nikoh tuzganlar va nikohdan ajrashganlar, kelganlar va ketganlar soni to'g'risida to'liq, ishonchli, o'z vaqtida va sifatli ma'lumotlarni olish maqsadida tayyorlangan.

Qo'llanma Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan o'rnatilgan me'yorlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasining demografik holatini hisobga oladi.

Mazkur Qo'llanma, demografik ko'rsatkichlarni qayta ishlash va shakllantirishda statistika organlari tomonidan fuqarolik holati dalolatnomalari, kelish va ketish varaqalariga statistik hisob talonlari elektron yozuvlarini kodlashtirishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Qo'llanma GSBPMning qayta ishlash va tahlil qilish bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Aholining joriy hisobini yuritish uchun manbalar:

- a) tug'ilganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- b) o'lim haqida dalolatnoma yozuvi;
- d) nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi;
- e) nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi;
- f) kelish varaqasiga statistika hisobi taloni;
- g) ketish varaqasiga statistika hisobi taloni.

a), b), d), e) kichik bandlarida ko'rsatilgan manbalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan 2012- yil 23- oktabrda 234-mh son bilan tasdiqlangan buyruqning (ro'yxat raqami 2397, 2012- yil 23- oktabr) 1-4-ilovalarida, shuningdek f), g) kichik bandlarida ko'rsatilgan manbalar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 1999- yil 29- martdagi 55-son buyrug'i (ro'yxat raqami 698, 1999- yil 9- aprel) bilan tasdiqlangan yo'riqnomaning 43-bandi 6-7-ilovalarida keltirilgan.

2-bob. Tasniflash va kodlashtirish tizimi

3. Demografik ma'lumotlarni qayta ishlash va demografik ko'rsatkichlarni shakllantirishda quyidagi statistik tasniflagichlardan foydalaniladi:

“O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy obyektlarni belgilash tizimi” (MHOBТ) statistik tasniflagichi;

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 10-qayta ko'rilgan kasalliklar va o'lim sabablari xalqaro statistik tasniflagichi (XKT-10);

ISO 3166 xalqaro standartiga asosan “Jahon mamlakatlari” statistik tasniflagichi.

3-bob. Demografik jarayonlarning joriy hisobini yuritish uchun birlamchi hujjatlarni kodlashtirish

4. Fuqarolik holati dalolatnomalarini kodlashtirish quyidagicha amalga oshiriladi:

barcha kodlar arab raqamlarida, qat'iy belgilangan joylarga yozilishi lozim, bunda kod dalolatnomadagi matnning ustiga yozilmasligi kerak. Oy nomlari va doimiy yashash joyidan tashqari, barcha ko'rsatkichlarning kodlari tegishli satrda joylashgan katakchalar ichiga yozilishi lozim;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan elektron yuborilgan fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlarini doimiy yashash joyidan boshqa satrlarini kodlashtirish talab etilmaydi;

doimiy yashash joyini kodlashtirish tug'ilganlarni – tug'ilganlik haqidagi, o'lganlarni – o'lim haqidagi, nikohlanuvchilarni – nikoh tuzilganligi haqidagi, nikohdan ajraluvchilarni – nikohdan ajralganlik haqidagi dalolatnoma yozuvlarida, kelganlarni – kelish varaqasiga statistika hisobi taloni, ketganlarni – ketish varaqasiga statistika hisobi talonlarida ko'rsatilgan ma'muriy-hududiy birlik bo'yicha, hududiy obyektlarni kodlashtirish tizimiga muvofiq amalga oshiriladi;

hududlarni kodlashtirish tizimi MHOBT tasniflagichi asosida shakllantiriladi.

O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasalari tomonidan rasmiylashtirilgan fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari (tug'ilganlik, nikoh tuzilganligi, nikohdan ajralganlik hamda o'lim haqida dalolatnoma yozuvlari) ma'lumotlari aholining tabiiy harakati ma'lumotlarini shakllantirishda foydalaniladi. Bunda tug'ilgan bola ota-onasining, o'lganlar, nikoh tuzganlar va nikohdan ajralganlar ularning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy yashash joylari bo'yicha hisobga olinadi.

Xorijiy davlatda o'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga "O'lim to'g'risidagi guvohnoma" o'lim sodir bo'lgan xorijiy davlatning Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan rasmiylashtirilgan taqdirda, ushbu o'lgan fuqarolar bo'yicha statistik hisob alohida tartib asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasalari tomonidan rasmiylashtirilgan fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari belgilangan tartibda umumiy asoslarda kodlashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Statistika agentligi tomonidan 2019- yil 4- martda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining elektron axborot almashinuvi bo'yicha texnik yo'riqnoma"ga muvofiq taqdim etilgan elektron axborotlar bazasining elektron kodlashtirish holatlari tekshiriladi va zaruriy holatlarda kodlarga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda Statistika agentligi tomonidan 2019- yil 24- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining elektron axborot almashinuvi bo'yicha texnik yo'riqnoma"ga muvofiq, Ichki ishlar

vazirligining Xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan elektron ma'lumotlar bazasining elektron kodlashtirish holatlari tekshiriladi va zaruriy holatlarda kodlarga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

5. Fuqarolik holati dalolatnomalarini kodlashtirishga tayyorlash.

Aholining tabiiy harakati to'g'risidagi yillik ma'lumotlar bazasida hisobot yilida sodir bo'lgan va ro'yxatga olingan barcha tug'ilish, o'lim, nikoh tuzish va nikohdan ajralish holatlari kiritilishi lozim. Tug'ilish yoki o'lim holatlari hisobot yilida sodir bo'lib, ularni ro'yxatga olish hisobot yilidan keyingi yilning yanvar oyida amalga oshirilgan bo'lsa, bunday dalolatnomalar hisobot davrining "13-oyi" kodi bilan alohida umumlashtirib qo'yiladi. Bunda, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi konsullik muassasalari tomonidan rasmiylashtirilgan tug'ilganlik yoki o'lganlik to'g'risidagi fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari ham hisobga olinadi.

6. Tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvini kodlashtirish:

1) ro'yxatga olish sanasi. Ro'yxatga olish yili maxsus kodlashtirishni talab qilmaydi. Ro'yxatga olish kuni va oyi so'z bilan yozilgan satr yuqorisida kun va oyning tartib raqami ko'rsatiladi. Tug'ilgan bolaning familiyasi, ismi va otasining ismi kodlashtirilmaydi;

2) tug'ilgan bolaning jinsi ("Tug'ilganlik haqidagi dalolatnoma yozuvi"ning 4-bandi) quyidagicha kodlashtiriladi:

o'g'il bola – 1, qiz bola – 2, jinsi noma'lum – 0;

3) bolaning tug'ilgan vaqti, vazni va bo'yi (dalolatnomaning 5-bandi). Maxsus kodlashtirishni talab qilmaydi. Agarda oy ko'rsatilmagan bo'lsa – "16" qo'yiladi; vazni ko'rsatilmagan bo'lsa – "9999" qo'yiladi; bo'yi ko'rsatilmagan bo'lsa – "99" qo'yiladi;

4) tug'ilgan joyi va doimiy yashash joyi (dalolatnomaning 6-bandi). Tug'ilgan joyi MHOBT va "Jahon mamlakatlari" statistik tasniflagichi asosida kodlashtiriladi. Doimiy yashash joyi O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq kodlashtiriladi (onasi yoki otasining doimiy yashash joyi bo'yicha);

agar ota-onaning doimiy yashash joyi noma'lum bo'lsa, dalolatnomaning yuqori o'ng qismida ro'yxatga olish amalga oshirilgan FHDYO joylashgan hududning kodi qo'yiladi;

doimiy yashash joyi MHOBT tasniflagichi asosida kodlashtiriladi;

5) nechta bola tug'ildi (dalolatnomaning 7-bandi). Maxsus kodlashtirishni talab qilmaydi;

6) tirik yoki o'lik tug'ilgan (dalolatnomaning 8-bandi). Mos katakchada quyidagicha kodlashtiriladi: tirik tug'ilganlar uchun – 0, o'lik tug'ilganlar uchun – 1;

7) onaning nechanchi bolasi tug'ildi (dalolatnomaning 9-bandi). Maxsus kodlashtirish talab qilinmaydi. Agar to'ldirmaslik holati uchraydigan bo'lsa, "31" soni bilan kodlashtiriladi;

8) dalolatnomaning 10, 11, 12, 13, 18, 19-bandlari kodlashtirilmaydi;

9) dalolatnomaning 14, 15, 16, 17-bandlari ota-ona nikohdan ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, ham otaga, ham onaga nisbatan to'ldiriladi. Agar nikoh ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa, otasi bo'yicha millatidan boshqa ma'lumotlar kodlashtirilmaydi;

10) ota (ona)sining tug'ilgan vaqti (dalolatnomaning 14-bandi). Tug'ilgan vaqti maxsus kodlashtirishni talab qilmaydi. Agar tug'ilgan yili noma'lum bo'lsa, mos katakchada "9999" kodi qo'yiladi, tug'ilgan oyi noma'lum bo'lsa "16" kodi, tug'ilgan kuni noma'lum bo'lsa "32" kodi qo'yiladi;

Ota (ona)ning tug'ilgan yili ko'rsatilmagan bo'lsa-yu, lekin yoshi ko'rsatilgan bo'lsa, yoshi ro'yxatga olingan yiliga qarab ota (ona) ning tug'ilgan yilini hisoblash lozim. Hisoblangan yil ushbu satrning o'ng tomoniga yozilishi kerak;

11) ota (ona)ning millati (dalolatnomaning 15-bandi). Ushbu qo'llanmaning ilovasiga muvofiq kodlashtiriladi. Dalolatnomada ko'rsatilgan millat ushbu ro'yxatda mavjud bo'lmasa "199" kodi, agar millat qayd etilmagan bo'lsa "190" kodi biriktiriladi. Tug'ilgan bolaning millati onasining millatiga qarab hisobga olinadi;

12) ota (ona)ning fuqaroligi (dalolatnomaning 16-bandi). Ota (ona)ning fuqaroligi "Jahon mamlakatlari" tasniflagichi asosida kodlashtiriladi;

13) ota (ona)sining doimiy yashash joyi (dalolatnomaning 17-bandi). Kodlashtirish faqat ota (ona)ning doimiy yashash joyi bo'yicha amalga oshiriladi.

Doimiy yashash joyi MHOBT tasniflagichi asosida kodlashtiriladi;

7. O'lim haqida dalolatnoma yozuvini kodlashtirish:

- 1) o'lim haqidagi dalolatnoma yozuvining sanasi;
o'lganning familiyasi, ismi va otasining ismi kodlashtirilmaydi;
- 2) o'lganning jinsi ("O'lim haqida dalolatnoma yozuvi"ning 4-bandi):
erkak – "1", ayol – "2", jinsi noma'lum – "0", qo'llanilmaydi – "9" tarzida kodlashtiriladi;
- 3) o'lganning millati (dalolatnomaning 5-bandi). Ushbu qo'llanmaning ilovasiga muvofiq kodlashtiriladi. Dalolatnomada ko'rsatilgan millat ushbu ro'yxatda mavjud bo'lmasa "199" kodi, agar millat qayd etilmagan bo'lsa "190" kodi biriktiriladi;
- 4) fuqaroligi (dalolatnomaning 6-bandi). O'lganning fuqaroligi "Jahon mamlakatlari" tasniflagichi asosida kodlashtiriladi;
- 5) o'lgan vaqti (dalolatnomaning 7-bandi). O'lgan vaqti maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Agarda oy ko'rsatilmagan bo'lsa "16" qo'yiladi. Agar sana ko'rsatilmagan bo'lsa, mos satrda "32" kodi qo'yiladi.
- 6) o'lgan joyi (dalolatnomaning 8-bandi). O'lgan joyi MHOBT tasniflagichiga muvofiq kodlashtiriladi;
- 7) o'limning sababi (dalolatnomaning 9-bandi). 10-XKT o'lim sabablarining nomenklaturasi, o'lim sabablarini kodlashtirish yo'riqnomasi asosida:
o'lim sababining umumiy kodi asosiy o'lim sababi satrga kiritiladi;
agarda o'lim sababining umumiy kodi baxtsiz hodisa bo'lsa, jarohatning xususiyati (shikastlanish turi) kodi jarohat satriga kiritiladi;
agarda o'lganning yoshi 0-6 kunlik bo'lsa, onaning kasalligi satrga kiritiladi.
- 8) tug'ilgan sanasi va joyi (dalolatnomaning 10-bandi). Tug'ilgan joyi kodlashtirilmaydi.
Tug'ilgan sanasi. Tug'ilgan sanasi maxsus kodlashtirishni talab etmaydi, agarda tug'ilgan yili ko'rsatilmagan bo'lsa, mos katakchaga "9999" kodi qo'yiladi.
Tug'ilgan oyi ko'rsatilmagan bo'lsa, "16" kodi qo'yiladi, kuni ko'rsatilmagan bo'lsa, mos satrda "32" kodi qo'yiladi.

O'lganning tug'ilgan yili ko'rsatilmagan bo'lsa-yu, lekin yoshi ko'rsatilgan bo'lsa, o'lgan yiliga qarab uning tug'ilgan yilini hisoblash lozim. Hisoblangan yil ushbu satrga kiritiladi;

Yoshi. Faqat 1 yoshgacha o'lgan bolalarni quyidagi yosh guruhleri bo'yicha kodlashtiriladi:

Yosh guruhleri	Yosh guruhining kodi
0 kunlik	3
1 kunlikdan 6 kunlikkacha	6
7 kunlikdan 1 oylikkacha	1
1 oylikdan 1 yoshgacha	2

Oylik yosh bolaning tug'ilgan va o'lgan sanasining farqi orqali aniqlanadi. Agar ushbu sanalar bir-biriga teng bo'lsa (masalan: 16 aprelda tug'ildi, 16 mayda o'ldi), bola oyga to'lgan hisoblanadi. Agar tug'ilgan sanasidan o'lgan sanasi kichik bo'lsa, uni 1 oylikdan kichik deb hisoblanadi (masalan: 31 yanvarda tug'ildi, 28 fevralda o'ldi);

9) 1 yoshgacha bolalarning tug'ilgan vaqti yozilmagan taqdirda, quyidagicha kodlashtiriladi:

agar o'lgan vaqti (sana, oy, yil) to'liq yozilgan bo'lsa:

o'lganning yoshi oy va kun yoki faqat kunlarda ko'rsatilgan bo'lsa, tug'ilgan vaqtini (sana, oy, yil) to'liq hisoblash mumkin. Hisoblangan sana kiritiladi;

o'lganning yoshi oylarda ko'rsatilgan bo'lsa, tug'ilgan oyi va yili hisoblanadi, tug'ilgan kuniga esa "32" kodi qo'yiladi. Hisoblangan sana kiritiladi;

agar o'lgan oyi va yili aniq bo'lsa, o'lgan oyiga qarab tug'ilgan oyi va yili hisoblanadi, tug'ilgan sanasi va o'lgan sanasi "32" kodi bilan kodlashtiriladi. Hisoblangan sana kiritiladi;

agar o'lgan oyi va yili ma'lum bo'lsa, yoshi kunlarda bo'lganda, quyidagi tartibda kodlashtiriladi: o'lgan kuni – "32", tug'ilgan kuni – "32", tug'ilgan oyi – "16", tug'ilgan yili – "9999". Kodlar kiritiladi;

agar faqat o'lgan yili ma'lum bo'lsa, yoshi oylarda yoki kunlarda bo'lganda, quyidagicha kodlashtiriladi: o'lgan kuni – "32", o'lgan oyi – "16",

tug‘ilgan kuni – “32”, tug‘ilgan oyi – “16”, tug‘ilgan yili – “9999”. Kodlar kiritiladi;

Onaning nechanchi bolasi va onasining yoshi ko‘rsatkichlari faqat 1 yoshgacha o‘lgan bolalar uchun to‘ldiriladi. Ushbu ko‘rsatkich maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Noma‘lum bo‘lsa quyidagicha kodlashtiriladi: nechanchi bolasi – “31”, onasining yoshi – “99”;

10) yashagan joyi (manzili) (dalolatnomaning 11-bandi). Doimiy yashagan joyining kodi kiritiladi:

agar o‘lganning doimiy yashagan joyi (1 yoshgacha o‘lgan bola uchun – onasining doimiy yashash joyi) FHDYO bo‘limining joylashgan manzili bilan mos bo‘lsa, dalolatnomaning yuqori o‘ng burchagida o‘lganning doimiy yashash joyi (1 yoshgacha o‘lgan bola uchun – onasining doimiy yashash joyi) kodi qo‘yiladi;

agar o‘lganning doimiy yashagan joyi (1 yoshgacha o‘lgan bola uchun – onasining doimiy yashash joyi) FHDYO bo‘limining joylashgan manzili bilan mos kelmasa, lekin bitta MHB (ma‘muriy-hududiy birlik)da joylashgan bo‘lsa, o‘lganning doimiy yashash joyi (1 yoshgacha o‘lgan bola uchun – onasining doimiy yashash joyi) kodi qo‘yiladi;

agar o‘lganning doimiy yashagan joyi (1 yoshgacha o‘lgan bola uchun – onasining doimiy yashash joyi) FHDYO bo‘limining joylashgan joyi bilan mos kelmasa va MHB (ma‘muriy-hududiy birlik)dan chetda joylashgan bo‘lsa, o‘limni qayd etgan FHDYO bo‘limi manzilining kodi qo‘yiladi;

agar o‘lganning doimiy yashagan joyi (1 yoshgacha o‘lgan bola uchun – onasining doimiy yashash joyi) noma‘lum yoki u O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa, o‘limni qayd etgan FHDYO bo‘limi manzilining kodi qo‘yiladi.

Doimiy yashash joyi MHOBT tasniflagichi asosida kodlashtiriladi.

11) Dalolatnomaning 12, 13, 14, 15, 16, 17 18, 19-bandlari kodlashtirilmaydi.

8. Nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvini kodlashtirish.

Barcha belgilar har ikkala nikohlanuvchilar uchun kodlashtiriladi:

1) nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvining sanasi. Nikoh tuzilganligini ro‘yxatga olish yili maxsus kodlashtirishni talab qilmaydi. Nikohlanuvchilarning familiyasi, ismi, otasining ismi kodlashtirilmaydi;

2) tug‘ilgan sanasi (er, xotin) (“Nikoh tuzilganligi haqida dalolatnoma yozuvi”ning 4-bandi). Tug‘ilgan yili maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Agar u ko‘rsatilmagan bo‘lsa, “9999” kodi qo‘yiladi. Tug‘ilgan oyi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, “16” kodi qo‘yiladi. Tug‘ilgan kuni ko‘rsatilmagan bo‘lsa, “32” kodi qo‘yiladi.

Agar nikohlanuvchilarning tug‘ilgan yili ko‘rsatilmay, yoshi ko‘rsatilgan bo‘lsa, nikohni ro‘yxatga olish yiliga qarab tug‘ilgan yili hisoblanadi. Nikohlanuvchilarning yoshi va tug‘ilgan joyi kodlashtirilmaydi;

3) nikohlanuvchilarning tug‘ilgan joyi MHOBT va “Jahon mamlakatlari” statistik tasniflagichi asosida kodlashtiriladi;

4) nikohlanuvchilarning millati (dalolatnomaning 7-bandi). Ushbu qo‘llanmaning ilovasiga muvofiq kodlashtiriladi. Dalolatnomada ko‘rsatilgan millat ushbu ro‘yxatda mavjud bo‘lmasa “199” kodi, agar millat qayd etilmagan bo‘lsa “190” kodi biriktiriladi;

5) fuqaroligi (dalolatnomaning 8-band). Nikohlanuvchilarning fuqaroligi “Jahon mamlakatlari” tasniflagichi asosida kodlashtiriladi;

6) nikohlanuvchilarning oilaviy ahvoli (dalolatnomaning 11-bandi). Maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Ya’ni “oilaviy ahvoli” ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ushbu satr tegishli katakchalarining oxiriga “9” kodi qo‘yiladi;

7) umumiy farzandlar to‘g‘risida ma’lumot (dalolatnomaning 12-bandi) maxsus kodlashtirishni talab qilmaydi.

8) doimiy yashash joyi (dalolatnomaning 13-bandi). Agar nikohlanuvchilarning doimiy yashash joyi umumiy, ya’ni nikohlanuvchilarning ikkalasi bitta tumanning bitta shahar yoki qishloq aholi punktida yashayotgan bo‘lsa, shu joyning kodi qo‘yiladi.

Agar nikohlanuvchilarning doimiy yashash joyi boshqa-boshqa hududda bo‘lsa, nikohlanuvchilarning qaysi biri nikohni ro‘yxatga oluvchi FHDYO bo‘limi joylashgan hududda yashasa shu nikohlanuvchi shaxsning doimiy yashash joyi kodi qo‘yiladi.

Agar nikohlanuvchilar O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmasa, nikohni ro‘yxatga oluvchi FHDYO bo‘limining joylashgan manzil kodi qo‘yiladi.

Doimiy yashash joyi MHOBT tasniflagichi asosida kodlashtiriladi.

9. Nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvini kodlashtirish.

Barcha belgilar har ikkala nikohdan ajraluvchilar uchun kodlashtiriladi.

1) nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvining sanasi. Nikoh tuzilganligini ro'yxatga olish yili maxsus kodlashtirishni talab qilmaydi.

Nikohdan ajraluvchilarning familiyasi, ismi, otasining ismi kodlashtirilmaydi;

2) tug'ilgan vaqti (er, xotin) ("Nikohdan ajralganlik haqida dalolatnoma yozuvi"ning 4-bandi). Tug'ilgan yili maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Agar u ko'rsatilmagan bo'lsa, "9999" kodi qo'yiladi. Tug'ilgan oyi ko'rsatilmagan bo'lsa, "16" kodi qo'yiladi. Tug'ilgan kun ko'rsatilmagan bo'lsa, "32" kodi qo'yiladi.

3) nikohdan ajraluvchilarning millati (dalolatnomaning 6-bandi). Ushbu qo'llanmaning ilovasiga muvofiq kodlashtiriladi. Dalolatnomada ko'rsatilgan millat ushbu ro'yxatda mavjud bo'lmasa "199" kodi, agar millat qayd etilmagan bo'lsa "190" kodi biriktiriladi;

4) nikohdan ajraluvchilarning fuqaroligi (dalolatnomaning 7-bandi). Nikohdan ajraluvchilarning fuqaroligi "Jahon mamlakatlari" tasniflagichi asosida kodlashtiriladi;

5) nikohdan ajraluvchining doimiy yashash joyi (dalolatnomaning 8-bandi). Agar nikohdan ajraluvchilarning doimiy yashash joyi umumiy, ya'ni nikohdan ajraluvchilarning ikkalasi bitta tumanning bitta shahar yoki qishloq aholi punktida yashayotgan bo'lsa, shu joyning kodi qo'yiladi.

Agar nikohdan ajraluvchilarning doimiy yashash joyi boshqa-boshqa hududda bo'lsa, nikohdan ajraluvchilarning qaysi biri nikohni bekor qilishni ro'yxatga oluvchi FHDYO bo'limida joylashgan hududda yashovchi nikohdan ajraluvchi shaxs doimiy yashash joyi kodi qo'yiladi.

Agar nikohdan ajraluvchilarning doimiy yashash joyi nikohni bekor qilishni ro'yxatga oluvchi FHDYO bo'limi joylashgan hududdan boshqa-boshqa joyda bo'lsa yoki ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, nikohni bekor qilishni ro'yxatga oluvchi FHDYO bo'limining joylashgan manzil kodi qo'yiladi.

Doimiy yashash joyi MHOBT tasniflagichi asosida kodlashtiriladi;

6) nikohdan ajraluvchilarning nechanchi nikohi (dalolatnomaning 11-bandi). Maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Agar birortasi ham

ko'rsatilmagan bo'lsa, ushbu satr tegishli katakchalarining oxiriga "9" kodi qo'yiladi;

7) ajratilayotgan nikoh qayd etilgan (dalolatnomaning 12-bandi). Bekor qilinayotgan nikohni qayd etilganlik yili maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Agar u ko'rsatilmagan bo'lsa, mos satrda "9999" kodi qo'yiladi. Oyi ko'rsatilmagan bo'lsa, "16" kodi qo'yiladi, kuni ko'rsatilmagan bo'lsa, "32" kodi qo'yiladi;

8) umumiy bolalar soni (dalolatnomaning 14-bandi). Maxsus kodlashtirishni talab etmaydi.

10. Kelish varaqasiga statistika hisobi talonini kodlashtirish.

1) ro'yxatga olish sanasi (Kelish varaqasiga statistika hisobi talonining 16-bandi). Ro'yxatga olish yili maxsus kodlashtirishni talab qilmaydi. Kelganlarning familiyasi, ismi, otasining ismi kodlashtirilmaydi;

2) tug'ilgan vaqti (talonning 4-bandi). Tug'ilgan yili maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Agar u ko'rsatilmagan bo'lsa, "9999" kodi qo'yiladi. Oyi ko'rsatilmagan bo'lsa, "16" kodi qo'yiladi. Tug'ilgan kuni, kun ko'rsatilmagan bo'lsa, "32" kodi qo'yiladi;

3) kelganlarning jinsi (talonning 6-bandi) quyidagicha kodlashtiriladi:

erkak – 1, ayol – 2, jinsi noma'lum – 0; qo'llanilmaydi – "9"

4) ko'chib kelganning millati (talonning 7-bandi). Ushbu qo'llanmaning ilovasiga muvofiq kodlashtiriladi. Ko'rsatilgan millat ushbu ro'yxatda mavjud bo'lmasa "199" kodi, millat qayd etilmagan bo'lsa "190" kodi biriktiriladi;

5) manzilga qayd qilindi (talonning 8-bandi). Qayd qilingan manzili MHOBT tasniflagichi asosida kodlashtiriladi;

6) ushbu manzilga qayerdan keldi (talonning 9-bandi). MHOBT tasniflagichi asosida kodlashtiriladi, agar keluvchi chet eldan kelgan bo'lsa, "Jahon mamlakatlari" tasniflagichi bo'yicha kodlashtiriladi;

7) talonning 5, 10, 11, 14-bandlari kodlashtirilmaydi;

8) ma'lumoti (talonning 12-bandi). Maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Agar birortasining ham tagiga chizilmagan bo'lsa, ya'ni "ma'lumoti" ko'rsatilmagan bo'lsa, ushbu satr oxiriga "9" kodi qo'yiladi;

9) oilaviy ahvoli (talonning 13-bandi). Maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Agar birortasining ham tagiga chizilmagan bo'lsa, ya'ni "oilaviy ahvoli" ko'rsatilmagan bo'lsa, ushbu satr oxiriga "9" kodi qo'yiladi;

11. Ketish varaqasiga statistika hisobi talonini kodlashtirish.

Ketganlik varaqasiga statistika hisobi talonini kodlashtirish faqat respublikadan tashqariga ketganlar uchun amalga oshiriladi:

1) ro'yxatga olish sanasi ("Ketish varaqasiga statistika hisobi taloni"ning 16-bandi). Ro'yxatga olish yili maxsus kodlashtirishni talab qilmaydi. Ro'yxatga olish kuni va oyi, so'z bilan yozilgan satr yuqorisida, ya'ni kun, oyning tartib raqami ko'rsatiladi.

Ketganlarning familiyasi, ismi, otasining ismi kodlashtirilmaydi;

2) tug'ilgan vaqti (talonning 4-bandi). Tug'ilgan yili maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Agar u ko'rsatilmagan bo'lsa, "9999" kodi qo'yiladi. Oyi ko'rsatilmagan bo'lsa, "16" kodi qo'yiladi. Kun ko'rsatilmagan bo'lsa, "32" kodi qo'yiladi;

3) ketganning jinsi (talonning 6-bandi) quyidagicha kodlashtiriladi:

erkak – 1, ayol – 2, jinsi noma'lum – 0, qo'llanilmaydi – "9";

4) ketganning millati (talonning 7-bandi). Ushbu qo'llanmaning ilovasiga muvofiq kodlashtiriladi. Ko'rsatilgan millat ushbu ro'yxatda mavjud bo'lmasa "199" kodi, millat qayd etilmagan bo'lsa "190" kodi qo'yiladi;

5) manzil bo'yicha qayd qilingan (talonning 9-bandi). Manzil MHOBt tasniflagichi asosida kodlashtiriladi;

6) qayerga ketdi (talonning 10-bandi) faqat xorijga ketganlar uchun "Jahon mamlakatlari" tasniflagichi asosida kodlashtiriladi;

7) talonning 5, 8, 11, 15-bandlari kodlashtirilmaydi;

8) ma'lumoti (talonning 13-bandi). Maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Agar birortasining ham tagiga chizilmagan bo'lsa, ya'ni "ma'lumoti" ko'rsatilmagan bo'lsa, ushbu satr oxiriga "9" kodi qo'yiladi;

9) oilaviy ahvoli (talonning 14-bandi). Maxsus kodlashtirishni talab etmaydi. Agar birortasining ham tagiga chizilmagan bo'lsa, ya'ni "oilaviy ahvoli" ko'rsatilmagan bo'lsa, ushbu satr oxiriga "9" kodi qo'yiladi;

4-bob. Yakuniy qoidalar

12. Aholining tabiiy va mexanik harakati to'g'risidagi ma'lumotlar hududlar kesimida (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) har oy yakuni bo'yicha hisoblab chiqiladi.

13. Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlarini hamda kelish va ketish varaqalariga statistika hisobi elektron talonlarini kodlashtirish hududiy statistika boshqarmalari tomonidan amalga oshiriladi.

14. Mazkur Qo'llanmani ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 1999- yil 29- martdagi 55-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999- yil 9- aprelda 698-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini joriy qilish tartibi to'g'risida yo'riqnoma".

2. Fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlari shakllarini to'ldirish qoidalari" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012- yil 23- oktabrdagi 234-mh-sonli buyrug'iga (ro'yxat raqami 2397, 2012- yil 23- oktabr) 5-ilova.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2020- yil 7- iyuldagi 59-son buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy-hududiy tuzilmalarini (obyektlarni) belgilash tizimi idoraviy statistik tasniflagichi.

4. Medkov V.M. "Demografiya"/O'quv qo'llanma/Rostov-na Donu/ Feniks, 2002.

5. Denisenko M.B., Kalmikova N.M. "Demografiya"/Moskva/INFRA-M, 2007.

6. Fuqarolik holatini qayd etish va aholining tabiiy harakati statistikasi tizimlari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash uchun qo'llanma / BMT / Nyu-York, 2004-yil.

7. Inson taraqqiyoti; ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi o'lchovi / O'quv qo'llanma /Moskva: Inson huquqlari, 2008.
8. Xalqaro migratsiya statistikasi bo'yicha tavsiyalar / Birinchi qayta ko'rilgan nashr / BMT/ Nyu-York, 1998.
9. Migratsiya sohasidagi terminlar bo'yicha glossariy. Xalqaro migratsiya huquqi/MOM/Jeneva, 2005.
10. Aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olish. BMT YeIK mamlakatlarining 2000- yil ro'yxatga olish raundidagi tajribalari/BMT/Nyu-York va Jeneva, 2008.
11. Tug'ilish va vafot etish darajasi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha qo'llanma /BMT/ Nyu-York, 2005.
12. 2010- yilda aholi va uy-joy fondini ro'yxatga olishni o'tkazish bo'yicha Yevropa statistikasi konferensiyasi tavsiyalari /Yevrostat/ BMT / Nyu-York va Jeneva, 2006.
13. <https://unstats.un.org/unsd/methodology/m49/>.